

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLA SHAXSIDA “MEN KONSEPSIYASI” TARKIB TOPTIRISHIDA O‘YIN FAOLIYATINING ZARURATI VA DOLZARBLIGI

Tajiboyev Asqat Alisher o‘g‘li

Stajyor o‘qituvchi. Jizzax davlat pedagogika universiteti

asqattajiboyev41@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17501013>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zini-o‘zi anglash jarayonida oilaning muhim ahamiyat kasb etishi, oilada bolaning psixologik o‘sishi uchun oiladagi ota-ona va oilaviy muhitning bolalar ongiga ta’siri, oilada o‘yin turlaridan foydalanish, ota-onalar bilan psixodiagnostik metodikalar o‘tkazish haqida ma’lumotlar keltrilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: oila, psixologik muhit, sotsial ta’sirlar, psixologik axborot oqimi, atrof muhitni idrok qilish, destruktiv ta’sirlar, o‘yin faoliyati, o‘ziga baho berishi, o‘zini anglashi, farzand.

Maktabgacha yosh inson hayotidagi zarur va mas’uliyatli davr hisoblanib, insonning tug‘ilish lahzasi sifatida olimlar va psixologlarning diqqat markazida bo‘ladi. Bu davrda maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy jarayonlarning tez sur’atlarda rivojlanishi, shaxsiy xususiyatlar, kichik odam turli xil faoliyat turlarini faol o‘zlashtiradigan davr hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida o‘z-o‘zini anglash jarayoni rivojlanadi, o‘zini o‘zi qadrlash paydo bo‘ladi, motivlar ierarxiyasi va ularning bo‘ysunishi shakllanadi. Darhaqiqat, bu davrda eng muhimi oilada bola shaxsining rivojlanishiga ta’siri, oila ichidagi tizimning ta’siri, shuningdek, unda mavjud bo‘lgan bola-ota-ona o‘zaro munosabatga kirishadigan davrdir.

Ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish bola shaxsining shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillarni tushunish uchun ham psixologik-pedagogik amaliyotni tashkil etish uchun ham juda muhimdir. Bu muammoni yechishning zarurati shundan dalolat beradiki, psixoanaliz, bixeviorizm yoki gumanistik psixologiya kabi ko‘plab nufuzli psixologik nazariyalar ota-onalar va bola o‘rtasidagi munosabatlarni bola rivojlanishining muhim manbai sifatida ko‘rib, bu muammoni olimlar e’tiborsiz qoldirmagan.

Maktabgacha yoshdagi bola bilan oila muhitida o‘yin turlaridan foydalanish orqali bola o‘z-o‘zini anglashining rivojlanishi va ular shaxsini tushunish imkoniyatini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning o‘z-o‘zini anglashining rivojlanishiga ota-ona va bola munosabatlarini aniqlash va ularga turli xil o‘yin turlarini olib borish g‘oyat dolzarb ekanligi ushbu ishimizda muammoni o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Oilada bola oila a’zolarining hissiy yaqinligi tufayli shaxslararo munosabatlarning dastlabki tajribasini egallay boshlaydi. Bola tarbiyalanayotgan oiladagi hissiy-emotsional muhit bolaning kelgusi dunyoqarashining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Turli nazariyalarda inson psixikasi va shaxsiyatini rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchlari, manbalari va shartlari haqidagi zamonaviy g‘oyalarga ko‘ra, bolaning aqliy rivojlanishi kattalar bilan, birinchi navbatda, ota-ona bilan muloqot va o‘zaro munosabat natijasida amalga oshiriladi degan fikrlar keltirilgan.¹

O‘z-o‘zini anglash jarayoning o‘yin faoliyatida rivojlanishi eng muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Negaki bola o‘ziga o‘yin faoliyatida asta-sekin ob’yektiv qarashni, xatti-harakatini to‘g‘ri baholashni, kamchiliklarini aniqlashni tengdoshlari bilan o‘ynash jarayonida aniqlaydi.

¹ G‘oziyev E. Pedagogik psixologiya asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 2000. – 112-b. .

O'yin faoliyati bolaning turli qobiliyatlarining shakllantiruvchisi ham hisoblanadi. Xususan, tashkilotchilik qobiliyati ham o'yin faoliyatida keskin ravishda shakllanadi. O'yin faoliyatini o'zimizning kuzatuvlarimiz fikrimizga tayanib tahlil qiladigan bo'lsak, bolaning o'zini-o'zi anglashga ob'yektiv yondashishi bilan xarakterlanadi. Bu keyingi yoshda bolaning o'zini tahlil qilish va boshqarishiga, o'ziga munosabatining sifat jihatdan rivojlanib borishini belgilab beradi.²

O'yin - bu bolalar faoliyatining turlaridan biri bo'lib, kattalar bolalarni tarbiyalash, ularga turli xil harakatlarni ob'yektlar, usullar va aloqa vositalari bilan o'rgatish uchun foydalanadilar. O'yinda bola shaxs sifatida shakllanadi, u o'z psixikasining o'quv va mehnat faoliyatining muvaffaqiyati, odamlar bilan munosabatlari bog'liq bo'lgan tomonlarini rivojlantiradi.

Bu mavzuda olib borgan tadqiqotlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqarishga yordam berishga va oila muhitida va maktabgacha ta'lim muassasasida ham samarali strategiyalarni joriy etishga erishish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin turlari nafaqat bolalarning qiziqishlarini oshiribgina qolmay, balki ularning rivojlanishiga, ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Oila a'zolari ichida o'yinlarni tashkil etish bolalar uchun qiziqarli va ko'ngilochar bo'lishi mumkin. Quyida oilada o'ynash mumkin bo'lgan bir nechta o'yinlarni taklif qilish mumkin:

1. **“Javob ber” o'yini:** Har bir a'zo navbatma-navbat savol beradi, masalan, “Eng sevimli taoming nima” yoki “Qaysi filmni ko'rishni yoqtirasiz”. Barcha ishtirokchilar javob beradi va qiziqarli muhokama boshlanishi mumkin.

2. **“Sahna qo'yish” o'yini:** Oila a'zolari biror sahna va hikoya tanlaydi va har biri o'sha sahnani ijro etadi. Boshqalar esa ularni baholaydi yoki hajviy fikrlar bildiradi.

3. **“Yozuvlar o'yini”:** Har bir ishtirokchi biror so'zni yozadi va qolganlari uni topishi kerak. Bu o'yin til va fikrlash qobiliyatini oshiradi.

4. **Kreativ rasm chizish:** Biror mavzu tanlang (masalan, “Kelajakdagi shahrim”) va har bir a'zo shu mavzuda rasm chizish. Keyin esa rasmlar ko'rsatilib ularni talqin qilinadi.


5. **Musiqiy va raqsli o'yinlar:** Musiqani tinglash va raqsga tushish orqali bolalar hissiyotlarini ifodalashga yordam beradigan faoliyatga jalb qilinadilar.

6. **Mantiqiy va aqliy o'yinlar:** Puzzlelar, shaxmat, shashka yoki boshqa mantiy o'yinlar bolalarning mantiqiy va analitik fikrlashini rivojlantiradi.

7. **Ta'lim beruvchi ilovalar orqali tashkil etilgan o'yinlar:** Ta'lim beruvchi turli ilovalar (masalan, Duolingo yoki Kahoot) orqali interaktiv tarzda yangi bilim berish mumkin.

Tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlari Jizzax viloyati Baxmal tumanida va Jizzax shahrida o'tkazildi. Sinov ishlari Baxmal tumanidagi 4-son Maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda Jizzax shahridagi 1-son Maktabgacha ta'lim tashkiloti 5-6 yoshli bolalar bilan olib borildi.

² U.P.Nikolayevich (2022). Emotional Intelligence and its Adolescents Being an Exemplary. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 139-145b



1-rasm Tadqiqot sinaluvchilarining jins bo'yicha tafovutlari.

O'tkazilgan tadqiqot bo'yicha sinaluvchilar 55 tasi o'g'il bolalar va 35 tasi qiz bolalarni tashkil etadi. Maktabgacha yosh bolalar shaxsining rivoji cho'qqisi bo'lib, ular o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'z-o'zini anglash hissi yuzaga keladi, "men"i rivojlanadi.

Biz tadqiqotda dastlab metodikalar tanladik, aynan ota-onaning bolaga bo'lgan munosabati, bolaning o'z-o'ziga munosabati, boladagi psixologik holat o'rganildi. Chunki aynan bolaning o'z-o'ziga munosabati va "men"i ota-ona munosabatidan boshlanadi va shakllanadi. Aynan tadqiqot orqali oiladagi muhit, bolaga ko'rsatilgan munosabatlar, o'yinning oilada qo'llanilishini kuzatdik.

Birinchii metodikamiz "Ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabati" test-so'rovnomasi ota-onalardan olindi va oilada bolaga munosabat o'rganildi.

Olingan natijalar tahlilini psixologiyada ma'lumotlarni qayta ishlash dasturi SPSS asosida tavsiflovchi va statistik, Kolmogorov-Smirnov mezon, Mann-Uitni guruhii taxlili va Spermen korrelatsion mezonlarda amalga oshirdik. Quyidagi natijalarga erishdik.

1-jadval

"Ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabati" test-so'rovnomasining tavsiflovchi statistika


Shkalalar	N	Minimal	Maksimal	O'rtacha qiymat	Stdandar og'ish	Assimetri	eksess
Bolani qabul qilishni rad etish	90	7	23	15,1798	3,42306	,302	-,293
Koperatsiya	90	2	7	4,8315	1,12043	-,105	-,499

Simbioz	90	0	7	5,0787	1,32480	-,717	1,312
Nazorat	90	2	7	5,0899	1,19317	-,464	-,438
Bolaning muvaffaqiyatsizliklarga munosabati	90	1	5	2,5843	1,00915	,511	,139

2-jadval


“Ota-onalarning bolalarga bo’lgan munosabati” test-so’rovnomasining guruhiiy tahlili

Shkalalr	Hudud	N	O’rtacha Rank	Ranklar summasi	U	p
Bolani qabul qilishni rad etish	Baxmal	45	33,23	1462,00	472,000	,000
	Jizzax	45	56,51	2543,00		
Koperatsiya	Baxmal	45	50,39	2217,00	753,000	,044
	Jizzax	45	39,73	1788,00		
Simbioz	Baxmal	45	49,63	2183,50	786,500	,085
	Jizzax	45	40,48	1821,50		
Nazorat	Baxmal	45	43,56	1916,50	926,500	,589
	Jizzax	45	46,41	2088,50		
Bolaning muvaffaqiyatsizliklarga munosabati	Baxmal	45	37,38	1644,50	654,500	,054
	Jizzax	45	52,46	2360,50		



2-rasm. “Ota-onalarning bolalarga bo’lgan munosabati” test-so’rovnomasining ranklar bo’yicha tahlili

O'tkazilgan mazkur metodikamizning, Bolani qabul qilish shkalasida farqlar chiqdi ($U=472,000$; $p<0,05$). Mazkur shkalada shaharda yuqori daraja aniqlandi. Bolani qabul qilishni rad qilish bu shkala bolaga nisbatan umumiy emotsional ijobiy qabul qilish yoki emotsional salbiy rad qilish munosabatni ifodalaydi. Shahardagi shaxslararo munosabatlarning kengroq diapozoni bolaga nisbatan munosabatga emossional tus berish qishloqqa nisbatan yuqori. Shahardagi ko'pchilik ota-onalar ish bilan band bo'lganligi ham emotsional ijobiy yoki salbiy munosabatni borttirishga sabab bo'lishi mumkin. Yani ishdagi ba'zi stressli vaziyatlar bolaga nisbatan munosabatga ham ta'sir o'tkazadi. Shuni ham aytish kerakki shaharda raqobat muhiti ham mazku tafovutni keltirib chiqarishi mumkin.



Demak, xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o'yin ham shaxs, ham butun jamiyat rivojlanishining hayotiy va zarur elementidir. O'yinlarning tabiatining murakkabligi bo'yicha jamiyatning turmush tarzi, huquqlari va ko'nikmalarini baholash mumkin.

Shahardagi shaxslararo munosabatlarning kengroq diapozoni bolaga nisbatan munosabatga emossional tus berish qishloqqa nisbatan yuqori.

Koperatsiya bu kattalarning bola bilan hamkorlik qilishga intilishini uning ishlariga qiziqishi va ularda ishtirok etishini ifodalaydi. Qishloqda onalarning uy bekasi ekanligi ularning ong ostidagi ba'zi orzulari, shaharda yashash istagi, bu orzusini farzandlar orqali amalga oshirish istagi mavjud

Qulay oilaviy vaziyat shkalasida shaharda yuqori daraja aniqlandi. Chunki shaharda sharoit, qulay muhit qishloqqa nisbatan yuqori. Madaniy dam olish, hordiq chiqarish va bolalar dam olishi uchun imkoniyatlar yetarli. Bolalar teatri mavjudligi. O'yingoxlarning yetarlicha bo'lganligi qulay muhitni yaratadi. Biz tadqiqot natijalarida quyidagi xulosalarga keldik.

Oilaviy munosabatlarni tahlil qilish sorovnomasi orqali shaharda ham, qishloqda ham o'yindan foydalanishga intilish, bola o'zini anglashiga ota-onaning aloqadorlik istagi deyarli bir xil

O'z-o'ziga munosabat, o'z-o'zini anglash shaxslararo munosabatlarga, dunyoqarashga, sharoitlardagi farqlarga va bog'chadagi, oiladagi tashkl etilgan o'yinlarga bog'liq bo'ladi;

Shaharda ko'proq intellektual o'yinlar ko'p o'ynaladi, bu esa o'z-o'zini anglashi yuqoriligiga sabab bo'ladi;

Qishloqda esa jismoniy o'yinlar ko'p o'ynaladi bu ulardagi jismoniy imkoniyatlarini oshiradi;

Oilada qulay oilaviy muhit qancha yaxshi bo'lsa bolani qabul qilishdagi emosionallik shuncha yuqori boladi;

Bola bilan hamkorlikdagi xarakteristikalar oshgani sari o'z-o'ziga bahosi xam oshadi;

Bolaning muvaffaqiyatsizliklarga ijobiy munosabat oshgani sari o'zini anglashi xam oshadi;

Simbioz shkala oshgan sari yani bolani ota-ona tomonidan avaylash, erkinlik bermaslik o'z-o'ziga bahosini pasaytiradi.

Shahar bolalarida o'zini ifodalash va o'zaro munosabatlar ko'proq rivojlangan bo'lishi mumkin, chunki ular turli xil kishilar va guruhlar bilan tez-tez muloqotda bo'ladilar. Bu o'z o'zini anglashga yangicha yondashuvni shakllantiradi.

Qishloq bolalari ko'proq kichik va cheklangan guruhlar bilan aloqada bo'lishadi, bu ularning o'z o'zini anglashiga o'ziga xos tarzda ta'sir qiladi.

Umuman olganda, qishloq va shahar bolalarining o'z o'zini anglashdagi tafovutlari muhit, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy sharoitlarga bog'liq holda shakllanadi. Har bir guruhda o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlar mavjud bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G'oziyev E. Pedagogik psixologiya asoslari.- T.: "O'qituvchi", 2000 . - 112-b.
2. U.P.Nikolayevich (2022). Emotional Intelligence and its Adolescents Being an Exemplary. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 139-145b
2. Do'stmuhammedova.Sh.A, Nishonova Z.T va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013. 23,24-b.
3. Fayzieva M, Jabborov A "Oilaviy munosabatlar psixologiyasi" T.: "Yangi asr avlodi" 2007-79-b.
4. I.V. Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. - Toshkent: 2018. - 74 b.
5. Jalilova S, Aripova S. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. "Faylasuflar" nashiryoti. Toshkent 2017 yil. - 301-b.
6. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi //O'quv qo'llanma. - T.: "Sharq" 2006. - 142 b.